

O‘TKIR HOSHIMOV IJODIDA ONA OBRAZI

F.F.Ziyedullayeva¹

Annotatsiya:

Mazkur maqolada O‘tkir Hoshimov ijodi haqida ma‘lumot berilgan. Ijodkorning “Dunyoning ishlari” qissasi tahlil qilingan. Qissasada ona obrazi va uning poetik xususiyatlariga munosabat bildirilgan.

Kalit so‘zlar: qissachilik, ijodkor olami, poetik mushohada, milliy ruh, mehr-muhabbat, qadriyatlar.

Dunyodagi barcha millat va xalqlarni birlashtiradigan bitta tuyg‘u bor, bir muhabbat bor. Bu – ona muhabbati, ona mehri. Badiiy adabiyotlarning eng sarasi ona haqidagi, she‘rlarning eng go‘zali ham ona muhabbatini tarannum etganidadir. Ona obrazi barcha xalqlar adabiyotidagi eng muhim obrazlardan biri sanaladi.

O‘tkir Hoshimov asarlarida atrofda sodir bo‘layotgan har bir narsani o‘zbekning ko‘zi bilan ko‘rib, dunyo voqealariga sof o‘zbekcha munosabat bildirish yetakchilik qiladi. Aynan shu tufayli yozuvchining deyarli har bir asari kitobxonlar tomonidan iliq kutib olingan, qalbidan muqim o‘rin egallagan. “Odamlar nima derkin”, “Bir tomchi shudring”, “Bahor qaytmaydi”, “Qalbingga quloq sol”, “Uzun kechalar”, “Dunyoning ishlari” qissalari kirib bormagan o‘zbek xonadoni yo‘q deyish mumkin.

O‘tkir Hoshimovning, ayniqsa, “Dunyoning ishlari” qissasi go‘zal tili va badiiy jozibasi bilan alohida e‘tirofga sazovor. Uni zahmatkash, mehribon, kamtar, insonparvar, pokiza va mushfiq o‘zbek onalari sha‘niga bitilgan samimiy doston deb atash mumkin. Adabiyotda onalarchalik ko‘p ishlangan mavzu bo‘lmasa kerak. Ular haqida yangi gap aytish, o‘quvchi bexabar ma‘lumotni topish, kitobxon qiziqishini uyg‘otish imkonsizday. Biroq “Dunyoning ishlari” ularni aslo takrorlamaydi, tubdan farq qiladi. Asar mazmun-mundariyasini hisobga olmaganda ham, shaklining o‘zi bilanoq badiiy yangilik yaratgan. Qissa o‘ttiz hikoyadan iborat. Har bir hikoya tugal, mustaqil mazmunga ega, ayni damda bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq, biri ikkinchisini to‘ldiradi. Bosh qahramon ona obrazini ochishga yo‘naltirilgan hikoyalar shu tarzda birlashib, yaxlit syujet chizig‘ini hosil qiladi. Bu yaxlitlik sun‘iy, zo‘rlab yasalmay, balki tabiiy bo‘lgani uchun hikoyalarning bittasini bo‘lsa ham tashlab o‘qigan kitobxon butun qissani tushunmasligi mumkin [2, 310].

O‘tkir Hoshimov yaratgan Ona obrazi boshqalardan nimasi bilan farqlanadi? Aytish mumkinki, mehri bilan. Ammo barcha asarlarda aynan ona mehri tasvirlanadi, deyishingiz mumkin. Darhaqiqat, shunday. Adib gavdalantirgan Ona o‘z mehri, qalb qo‘rini boshqalar kabi faqat o‘z bolalariga emas, butun bolalarga, millati, yoshi, jinsidan qat‘i nazar, har bir insonga baxsh eta oladi. Mana shu xususiyati bilan u yorqin, takrorlanmas, original va suyuclidir. Har qanday narsaning me‘yorida ortig‘i kishi ko‘nglida shubha uyg‘otadi. Ammo “Dunyoning ishlari”dagi Onaning mehribonligi, bolajonligi, donoligi, kamtarligi, barchaga yaxshilikni ravo ko‘rishi o‘quvchiga g‘alati tuyulmaydi.

Biz rus, yapon, koreys xalq og‘zaki adabiyotiga ham e‘tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, barchasida onalar tomonidan kuylanadigan, farzandiga mehru-muhabbatini izhor etadigan allalari mavjud. Alla bolaning onasi tomonidan aytiladigan ilk qo‘shiq bo‘lib, bu qo‘shiqda onaning orzulari, armonlari barcha-barchasi o‘z ifodasini topadi. Xuddi mana shunday

¹ Ziyadullayeva Fotima Fazliddinovna, Samarqand davlat chet tillar instituti O‘zbek tili, jurnalistika va kompyuter lingvistikasi kafedrasida katta o‘qituvchisi

onalar haqida, uning mehru-muhabbati haqida yozilgan o'zbek adabiyotidagi eng go'zal asar, qo'shiqday sokin kuylanib, tinglanadigan asar O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasidir. Aynan mana shu asarda sokin kuylangan ona allasi bor. Bu alla o'zbek tilida emas, rus tilida jaranglaydi. Bu bilan yozuvchi ona muhabbati na masofa, na vaqt, na millat tanlaydi. U mu'jiza ekanligini asarning boshidayoq kitoxonga his qildiradi. "Dunyoning ishlari" boshdan-oyoq nihoyatda yorqin, ajib bir milliy bo'yoqlar bilan jilolangan. Ayni paytda asar teran bir umuminsoniy, baynalmilal tuyg'ular bilan yo'g'rilgan. Qissada bunday mulohazalar bor: "Ehtimol, dunyoning bu chetida turib bir odam o'z sevgilisiga aytgan dil rozini dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Ehtimol, dunyoning bu chetida turib bir odam aytgan qo'shiqni dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Ehtimol, dunyoning bu chekkasida turib bir odam aytgan oqilona fikrni dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Biroq dunyoning bu chekkasida turib ona aytgan allaga dunyoning narigi chekkasidagi go'dak bemalol orom oladi" [3,188].

"Dunyoning ishlari" – O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov qalamiga mansub memuar qissa. Asar katta-kichik hikoyalardan iborat, uzoq yillar davomida yozilgan va to'liq tarzda 2005-yilda "Sharq" nashriyoti tomonidan nashr etilgan. Keyinchalik boshqa nashriyotlar tomonidan ham ko'p bora qayta nashr etildi. Jumladan, 2015-yilda "Yangi asr avlodi" nashriyoti tomonidan 336 betli qattiq muqovada nashr etildi. Ushbu nashrning ustki qismida qishloq ko'chasidagi uylar va adibning onasi tasvirlangan. "Dunyoning ishlari" ingliz tiliga tarjimai 31-martdan Amazon saytida sotuvga chiqqan. "Dunyoning ishlari"ning reklamasi Nyu-York metrosida ham paydo bo'lgan. Tarjimonlar Mark Ris va Abdulla Ro'ziyevlar asar nomini ingliz tiliga "Such is Life" deb o'girishgan. Risning yozishicha, kitobni tarjima qilishdan nashr qilishgacha 5 yil vaqt ketgan. Ris kitobni nashr qilishgacha bo'lgan bosqichda qatnashganlarga minnatdorlik bildirgan. Kitobning orqa tomonida adibning quyidagi so'zlari keltirilgan: "Dunyoda hech bir chegarani tan olmaydigan va quyosh kabi muttasil nur sohib turadigan sehrli kuch bor. Bu – Ona mehri! Alloh Onani shunday yaratgan!"

Qissadagi hikoyalarda Ona obrazining to'laqonli siymosi ochib beriladi. "Gilam paypoq", "Alla", "Haqqush", "Qarz", "Iltijo" hikoyalarda turli voqealar qalamga olinsa-da, ularda o'zbek oilalaridagi ona va farzand munosabatlari, keng insonlar taqdiri, ularning ezgu amallari bo'rtib turadi. Qissa 33 ta katta-kichik hikoyalardan tashkil topgan bo'lib, ona obrazi ularning barchasini tutashtirib turadi. Asardagi hikoyalar o'quvchini hayajonga soladi, ta'sirlantiradi. Ona siymosiga bo'lgan samimiy tuyg'ularimizni, mehr-muhabbatimizni yanada oshirishga xizmat qiladi.

O'tkir Hoshimovning asarlarida Ona obrazini yaratilishi va yoritilishi uning mahoratini ko'rsatuvchi yetakchi omillardan biridir. Uning kitobxonlarga juda manzur bo'lgan ko'plab asarlarida ona obrazi alohida ahamiyatga ega. Misol uchun "Ikki eshik orasi", "Dunyoning ishlari", "Tushda kechgan umrlar", "Urushning so'nggi qurboni", "Odam ovozi", "Nur borki, soya bor", "O'zbeklar" badiiy asarlaridir.

O'zbek adabiyoti durdonalarining aksariyatidagi obrazlarning yetakchisi – onalarimiz, o'zbek ayollarmizdir. Muhammad Yusufning "O'zbekning ayollari", Iqbol Mirzoning "Ona", Halima Ahmedovanning "Onam aytdi" singari lirik she'rlari, Nazar Eshonqul, Xurshid Do'stmuhammad kabi yozuvchilarimiz asarlarida munis va mushtipar onalarimizning sabrmatonati tasvirlanganki, bu asarlarning barchasi qalbimizda onalarimizga, opa-singillarimizga bo'lgan ehtiromimizni shakllantiradi.

Xullas, O'zbekiston Xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi o'quvchilarni eng buyuk zot – Onaga hurmat-ehtirom ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etuvchi go'zal asardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulla Qahhor. Zamondoshlari xotirasida. – T.: G'G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. – 260 bet.

2. Mirzayev Saydulla. XX asr o'zbek adabiyoti. – T.:Yangi asr avlodi, 2005. – 415 bet.
3. Hoshimov O'tkir. Dunyoning ishlari. – T.: Adabiyot uchqunlari, 2018. – 195 bet.